

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati..... | 8 |
| T.A.Egamberdiyeva Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari | 13 |
| N.T.To‘xtaboyev Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasi tahlili | 18 |
| I.B.Siddiqov Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida..... | 25 |
| N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi | 28 |
| Sh.A.Mamajonov Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish..... | 32 |
| M.M.Kuzibayeva Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar..... | 37 |
| K.R.Abdullayeva Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari | 39 |
| Sh.K.Xujamberdiyeva Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari | 43 |
| U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari | 48 |
| R.Z.Xayrov Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari..... | 54 |
| G.U.Radjabova Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi..... | 61 |
| Г.К.Якубова Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" | 67 |
| M.M.Xamroliev Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari | 73 |
| U.V.Mamadjanov Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari | 76 |
| S.X.Kaxxarov Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari | 80 |
| X.X.Tojiyev Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash | 85 |
| D.S.Sobirov Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari | 92 |
| D.Z.Isaboyeva Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) | 96 |
| F.Q.Yusupjanova O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari | 99 |
| X.A.Ustadjalilova Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari..... | 102 |

O'QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILIYATLARI VA UNING KOMPONENTLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ УЧИТЕЛЯ И ИХ СОСТАВЛЯЮЩИЕ

PEDAGOGICAL ABILITIES OF THE TEACHER AND ITS COMPONENTS

Yusupjanova Feruza Kurbanovna¹¹Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Аннотация**

Mazkur maqolada hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qilishini inobat olib, pedagogik fanlar tarmog'idagi har bir o'qituvchi uchun nihoyatda zarur hisoblangan pedagogik mahorat va uning komponentlari xususida so'z yuritiladi muhim.

Аннотация

В данной статье рассматриваются современные глобальные изменения, ежедневное развитие науки, техники и информационно-коммуникационных технологий, что требует от учителя XXI века педагогического мастерства, острой воли, педагогико-психологических знаний, глубоких знаний своей науки и высокого мышления, политической грамотности, широкого круга мыслителей и вдумчивости. в области педагогических наук педагогический навык, считающийся крайне необходимым для каждого учителя, и его составляющие упоминаются отдельно.важный.

Abstract

In this article, today's global changes, the daily development of science and technology and information and communication technologies require pedagogical skill, sharp will, pedagogical-psychological knowledge, deep knowledge of one's subject and high thinking, political taking into account the fact that it requires literacy, a wide and thoughtful range of thinking, it is important to talk about the pedagogical skill and its components, which are considered extremely necessary for every teacher in the field of pedagogical sciences.

Kalit so'zlar: *innovatsiya, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyatlar, korreksion pedagogika, komponentlar, sifatli ta'lim, shaxsiy rivojlanish bosqichlari.*

Ключевые слова: *инновации, педагогическое мастерство, педагогические способности, коррекционная педагогика, компоненты, качественное образование, этапы личностного развития.*

Key words: *innovation, pedagogical skills, pedagogical skills, corrective pedagogy, components, quality education, stages of personal development.*

KIRISH

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi tabiiydir. O'qituvchi – O'zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro'-e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart.

O'qituvchi ota-ona bilan birgalikda barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrof-dagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Pedagogik mahoratga ega bolish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda, uning jamiyatdagi obro'- e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi

ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.. Hozirgi kunda darsliklar, kommunikatsion axborot texnologiyalari qanchalik rivojlangan bo'lsin, pedagogik amaliyot, ta'lim - tarbiya ishlarining muvaffaqiyati oxir oqibatda o'qituvchining bilimiga, uning kasbiy mahoratiga bog'liq

METODLAR

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

- ✓ Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.
- ✓ Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
- ✓ Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
- ✓ Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Pedagogik mahorat, o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim - tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi. muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy - ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkii etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari — ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar.

O'qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. Vazifasini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'qituvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR

Tadqiqotlarga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning asosini tashkil etuvchilari hisoblanadi:

Pedagogik mahoratning tashkil etuvchi komponentlari:

- ✓ o'qituvchilik kasbga sadoqat;
- ✓ o'z fanining o'qitish metodikasini mukammal bilishi;
- ✓ pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- ✓ pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi.

O'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini sirasiga iymon-e'tiqodi, dunyoqarashining kengligi, faolligi, odob-axloqi, fuqarolik burchini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyligi va o'z maqsadlariga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablariga o'z fikr-mulohazasi bilan faol ishtirok etishi kiradi.

O'qituvchilarning kasbiy xususiyatlariga: o'z kasbini, bolalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobliligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuri, qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatlilik, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa fazilatlar kiradi.

Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar quyidagilar:

PEDAGOGIKA

- ✓ ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;
- ✓ ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilishi va baholashi;
- ✓ ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etishi;
- ✓ o'quv - tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik- psixologik va metodik ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- ✓ fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;
- ✓ jamoani «ko'ra bilish», o'quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ularning hayot faoliyatlarida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo'la olish, o'z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lishi;
- ✓ o'z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo)ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lishi.

Kishilarda bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib borayotir. Shuning uchun hozirgi kunda o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalaridagi yangiliklarni bilishi talab etiladi.

XULOSA

Pedagogik mahorat - yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlarini, O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi.

Yosh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Tajribali ustoz o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

✓ O'qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni oshirib borish.

✓ Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

✓ Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud. Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya sarnaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro'-e'tiborini oshiradi, o'quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xamidova Nilufar Sayfiddinovna, Radjabova Oksana Aleksandrovna. "Pedagogik mahorat va uning komponentlari"//Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnal. // <https://doi.org/10.5281/zenodo.7240876> // 2022. — № 3. 162-163 b.
2. Jamshidbek O. Effectiveness of improving students'knowledge about the basics of the concept of technological determinism. Conferencea. – 2022. – C. 348-354.
3. Obidov J. G., Alixonov E. J. Organization of the education process based on a credit system, advantages and prospects //Academia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1149-1155.